

## BOLA HUQUQINI TAMINLASHDA YANGI TAXRIRDAGI KONSTITUTSIYA VA MILLIY QONUNCHILIGIMIZ

Jamolov Iskandar Baxridin o‘g‘li

Namangan davlat universiteti Yuridik fakulteti 2-bosqich talabasi

E-mail: iskandarzamolov@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqola orgali siz bolalar huquqini taminlash bo'yicha Yurtimizda amalga oshirilgan ishlar, milliy qonunchiligidagi o'zgarishlar so'nggi kunlardagi yangiliklar bilan bataysil tanishasiz. Yurtimizda bola huquqi nechog'lik himoya qilinayotgani haqida ham muhim malumotlar bilan tanishasiz bundan tashqari rivojlangan Yevropa mamlakatlarida bola huquqlari qanday taminlangani bilan ham tizimli tanishib chiqilgan va qiyoslab tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Bola, bola, bola huquqlari, BMT, milliy qonunchilik, Konstitutsiya, Qonun Konvensiya, Farmon, Farmoish, kodifikasiya, Ratifikatsiya.

## НЕДАВНО ПЕРЕСМОТРЕННАЯ КОНСТИТУЦИЯ И НАШЕ НАЦИОНАЛЬНОЕ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО В ОБЕСПЕЧЕНИИ ПРАВ РЕБЕНКА

**Аннотация:** Благодаря этой статье вы подробно ознакомитесь с работой, проделанной в нашей стране по обеспечению прав детей, изменениями в нашем национальном законодательстве за последние дни. Вы также познакомитесь с важной информацией о том, как защищаются права ребенка в нашей стране, кроме того, систематическое ознакомление и сравнительный анализ того, как обеспечиваются права ребенка в развитых европейских странах.

**Ключевые слова:** Ребенок, ребенок, права ребенка, ООН, национальное законодательство, Конституция, Закон, Конвенция, Указ, Указ, кодификация, Ратификация.

## THE NEWLY REVISED CONSTITUTION AND OUR NATIONAL LEGISLATION IN ENSURING THE RIGHTS OF THE CHILD

**Abstract:** Through this article, you will get to know in detail the work done in our country to ensure children's rights, the changes in our national legislation in recent days. You will also get acquainted with important information about how the rights of the child are protected in our country, in addition, a systematic introduction and comparative analysis of how the rights of the child are ensured in developed European countries.

**Key words:** Child, child rights, UN, national legislation, Constitution, Law, Convention, Decree, Decree, codification, Ratification.

Bolalar huquqini ta'minlash bo'yicha milliy qonunchilik haqida gap borganda, avvalo, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining normalariga to'xtalib o'tish lozim. Mustaqil davlatimizning Yangi taxrirdagi Konstitutsiyasida bolalarni barkamol qilib voyaga yetkazish, billim olish, ta'lim-tarbiya masalasiga alohida e'tibor berilib, ularga konstitutsiyaviy maqom berildi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida har kim talim olish huquqiga egaligi, Davlat bepul umumiy ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olish kafolatlaydi, maktabgacha ta'lim va tarbiya, umimiy o'rta ta'lim davlat nazoratida ekanligi o'rnatilgan va bu amalda qay tariqa ekanligini barchamizga maql<sup>9</sup>.

Asosiy qism Shu o'rinda yangi taxrirdagi Konstitutsiyadan yana bir misol keltirib o'tishni joiz deb bildim." O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir. O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi. deb belgilangan"<sup>10</sup>. Ushbu moddaning asosi sifatida shuni aytishim mumkinki, ahamiyat kasb etuvchi ushbu ustuvor qoidadan kelib chiqib, mamlakatimizda maktabda ta'limi tili 7 ta tilda olib borilayotgani so'zimni isboti bo'la oladi. Shu bilan birga ta'lim tizimida o'quvchilar jahondagi ulkan intellektual boylikni egallashning eng muhim sharti hisoblangan xorijiy tillarni ham chuqur o'rganishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilganligi ham quvonarli albatta.

Mavzuning dolzarbli: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi bolalar huquqini himoya qilishda oliy yuridik kuchga ega hujjat bo'lib, unga asosan davlat bolalarning qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 57-moddasida mehnatga layoqatsiz va yolg'iz keksalarni huquqlari davlat himoyasida ekanligi belgilab qo'yildi. Uning 77-moddasida esa ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majbur ekanliklari, davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlashi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatini rag'batlantirishi o'rnatilgan. Asosiy qonunimizning 78-moddasida farzandlar ota-onalarning nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengligi, onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinishi mustahkamlangandir. Shu bilan birga bugungi kunda O'zbekistonda bolalar huquqini himoya qilish umume'tirof etilgan tamoyillar ustuvorligini ta'minlash, bola huquqlariga oid milliy qonunchilikni takomillashtirish, xalqaro shartnomalar bajarilishini huquqiy tartibga solish yo'nalishlarida amalga oshirilayotganligi ham bugungi kunning yutuqlaridan biri.

Mavzu yuzasidan erishilgan yutuqlar: Avvalo mavzuga oid yani Bola huquqini taminlashda milliy qonunchiligidan tubdan rivojlanganligini ko'rishimiz mumkin bunga

<sup>9</sup> O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.

<sup>10</sup> O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. O'zbekiston Toshkent 2023-yil 4-b.

yorqin misol qilib bugungi kun talabi va extiyojlaridan kelib chiqadigan Yangi taxrirdagi Bosh qonunimiz Konstitutsiyamizni qabul qilinishi bo'ldi. Ushbu yo'nalishda 100 dan ortiq qonun, farmon, qaror va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi, ular orasida 2008-yil 7-yanvarda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu qonunning qabul qilinishi bolalar huquqiga oid qonun hujjatlarining kodifikatsiya qilinishiga zamin yaratdi. Shuningdek, 2010-yilda Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarlik profilaktikasi to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi bolalar huquqi va manfaatlarini himoya qilishning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Umumiy malumot Bola huquqlari to'g'risida gapirganda, avvalo, shu masalaga tegishli asosiy tushunchalarga to'xtalib o'tish lozim deb bilaman. O'zbekiston Respublikasining «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidas gi 2008-yil 7-yanvardagi Qonunining 3-moddasida ushbu tushunchalar bayon etilgan. Unga binoan bola (bolalar) deganda, o'n sakkiz yoshga to'lgunga (voyaga yetgunga) qadar bo'lgan shaxs (shaxslar) tushuniladi; bolaning qonuniy vakillarini ota-onalar, farzandlikka oluvchilar, vasiylar, homiylar tashkil etadi; vasiylilik va homiylilik ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ularga ta'minot, tarbiya hamda ta'lif berish, shuningdek, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida joylashtirishning huquqiy shakli hisoblanadi.

O'z navbatida Vasiylilik va homiylilik masalalariga alohida to'xtalib o'tsam Vasiylilik o'n to'rt yoshga to'limgan, homiylilik esa o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan bolalarga nisbatan belgilanadi; yetim bola deganda, otasi ham, onasi ham vafot etgan yoki ular sud qaroriga binoan vafot etgan deb e'lon qilingan bolalar tushuniladi; ota-onaning o'rnnini bosuvchi shaxslar sirasiga qonunda belgilangan tartibda bolaga nisbatan ota-onalik huquqini amalga oshiruvchi va ota-onalik majburiyatlarini bajaruvchi, lekin bolaning ota-onasi bo'limgan shaxslar (farzandlikka oluvchilar, vasiylar va homiylar) kiradi. O'zbekiston Respublikasining «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunida belgilanishicha, bolalar huquqini himoya qilish bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari bo'lib bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, bolaning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish, bolaning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik, bolaning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, bolalar huquqlari va imkoniyatlarining tengligini ta'minlash, bolalarning jismoniy, intellektual, ma'naviy va axloqiy kamol topishiga ko'maklashish, bolalarda vatanparvarlik, fuqarolik, bag'rikenglik va tinchliksevarlik tuyg'ularini tarbijalash, bolaning ilmiy, texnikaviy va badiiy ijodkorligini rivojlantirish, bolalar huquqini ta'minlash maqsadida davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari o'rtasida hamkorlik qilish, bolalar huquqini himoya qilish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish hisoblanadi.

Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasining 3-moddasiga ko'ra har bir inson yashash, erkin bo'lismi va shaxsiy daxlsizlik huquqlariga egadir. Shundan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasining «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonunida bolalarga tegishli bir qator huquqlar belgilangan. Chunonchi, ushbu qonunda ko'rsatilishicha, yashash huquqi har bir bolaning uzviy huquqidir. Bola hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir (8-modda).

Shuningdek, har bir bola individuallikni saqlash huquqiga, ya'ni har bir bola tug'ilgan paytdan e'tiboran familiya, ism, otasining ismini olish, millati va fuqaroligiga ega bo'lismi hamda ularni saqlab qolish huquqiga ega. Bundan tashqari har bir bola erkinlik, shaxsiy daxlsizlik, turar joyi daxlsizligi va xat-xabarlarini sir tutish, o'z sha'ni va qadr-qimmatiga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga g'ayriqonuniy aralashuvlardan himoyalanish huquqiga ega. Davlat bolaning shaxsi, turar joyi daxlsizligini, xat-xabarlari sir tutilishini ta'minlaydi hamda bolani ekspluatatsiyaning barcha shakllaridan, shu jumladan, jismoniy, ruhiy va jinsiy zo'ravonlikdan, qiyonoqqa solishlardan yoki shafqatsiz, qo'pol yoxud inson qadr-qimmatini kansituvchi boshqa shakldagi muomaladan saqlashi lozim.

Xulosa qilib aytganda bola huquqlarini himoya qilishda Bola huquqlarini tizimli ta'minlab berilishi ham qonunchilik darajasid ham institutsional amalga oshiriliyotgani barchamizga malum, Tizimli yondashuv davlat organlari va muassasalari, ham nodavlat tashkilotlar va jamg'armalar tomonidan amalga oshirilmoqda, chora tadbirlarni o'z ichiga olgan milliy dasturlarni qabul qilish va amalga oshirilmoqda unga yorqin va asosli misol qilib Yangi taxrirdagi Konstitutsiya to'la qonli to'yinganini ko'rishimiz mumkin bunga yuqorida bir qator misollar bilan izohladik. Xususan Inson va fuqarolarni huquqlarini himoya qilish bobiga qo'shimcha kiritilgan moddalar va eski taxrirdagi moddalar bugungi kun talabida kelib chiqiqb o'zgartirilgani quvonarli holdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. O'zbekiston Toshkent 2023-yil 4-b.
2. INSON HUQUQLARI Toshkent adolat 2013-yil 369-bet.
3. Inson huquqi "Yuridik adabiyotlar publis" Toshkent 2022-yil. B154.
4. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil, 6-son, 70-modda.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi // Xalq so'zi», 2017-yil 20-sentabr.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning «Kamolot» YOIHning IV qurultoyida so'zlagan nutqi // Xalq so'zi», 2017-yil 4-sentabr.
7. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonun hujjatlari.